

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ISSUE 10

OCTOBER

Journal of

RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

JORAI

Technology

Architecture

География

Philology



IMFAKTOR  
PAGES

2023

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-10

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ - 2023

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-10>

## Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

## Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

**SHARIPOVA Maxbuba Baxshilloeyvna**

*Buxoro davlat universiteti*

*“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi*

*o’qituvchisi, (PhD)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10044657>

## “ALPOMISH” DOSTONINI O’ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI

### ANNOTATSIYA

“Alpomish” dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug’lar birligini kuylovchi ulkan eposdir. Odil va haqqoniy bo’lishni, vatanimizni, oila qo’rg’onimizni qo’riqlashni, do’stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini, milliy qadriyat ba an’alarimizni, ma’naviy boyliklarimizni asrab-avaylash ularni o’rganish, epos misolida tafakkur etishga undaydi.

Ushbu maqolada o’zbek xalqining buyuk eposi -“Alpomish” dostonini o’zbek variantlari orasidagi marosimlarning badiiy talqini haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** epos, marosim, baxshi, poetik mahorat, “Uch kunlik kuyov ko’rsatar”, “Ism qo’yish”, “Do’stlashish”, variant va versiya, mifologik nazariya, tarixiy-jug’rofiy nazariya, antropologik nazariya, qiyosiy etnografik nazariya, etnofolkloristik usullar, sayyor sjetlar nazariyasi.

## СРЕДИ УЗБЕКСКИХ ВАРИАНТОВ ЭПОСА” АЛПОМИШ” ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ТОЛКОВАНИЕ ОБРЯДОВ

### АННОТАЦИЯ

Эпос «Алпомиш» - огромный эпос, воспевающий о героизме, храбрости, патриотизме, братстве разных наций и народов, любви и верности, семейной силе и единстве родов. Чтобы быть справедливым и правдивым, защищать нашу Родину, нашу семейную крепость, наших друзей, нашу честь, священные могилы наших предков, наши национальные ценности и традиции, наше духовное богатство, обучение побуждает думать на примере эпос.

В данной статье рассматривается художественная интерпретация обрядов в узбекских вариантах великого эпоса узбекского народа - «Алпомиш».

**Ключевые слова:** эпос, ритуал, бакши, поэтическое искусство, «Трехдневные женихи», «Именованье», «Дружба», вариант и версия, мифологическая теория, историко-географическая теория, антропологическая теория, сравнительная этнографическая теория, этнофольклористика. методы, теория путевых зарисовок.

## THE EPIC "ALPOMISH" IS AMONG THE UZBEK VARIANTS ARTISTIC INTERPRETATION OF CEREMONIES

### ANNOTATION

The epic "Alpomish" is a huge epic glorifying heroism, courage, patriotism, brotherhood of different nations and peoples, love and fidelity, family strength and unity of clans. To be fair and truthful, to defend our Motherland, our family fortress, our friends, our honor, the sacred graves of our ancestors, our national values and traditions, our spiritual wealth, learning encourages us to think using the example of the epic.

This article examines the artistic interpretation of rituals in the Uzbek versions of the great epic of the Uzbek people - "Alpomish".

**Key words:** epic, ritual, bakshi, poetic art, "Three-day Grooms", "Naming", "Friendship", variant and version, mythological theory, historical-geographical theory, anthropological theory, comparative ethnographic theory, ethno-folkloristics. methods, theory of travel sketches.

Jahon eposshunosligida dostonning folklor janrlari tizimida tutgan o'rnini, tarqalish areali, taraqqiyot qonuniyatlari, epik sujeti, arxaik va an'anaviy motivlari, obrazlar tarkibi, badiiy qurilishi, ifoda uslubi, tili masalalari tadqiqi har doim ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Epos va marosim, epos va etnos masalasi ham shunday dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Ularning alpomishshunoslikda doston variantlari asosida o'rganilishi, unda oilaviy-maishiy marosimlar hamda milliy urf-odatlarining poetik talqin xususiyatlarini ritual-mifologik, tarixiy-jug'rofiy, antropologik, qiyosiy etnografik, etnofolkloristik usullar, sayyor sjetlar nazariyasi vositasida ochish epos nazariyasini boyitishga xizmat qila olishi jihatidan muhim hisoblanadi.

"Alpomish" dostoni epik merosga ega barcha xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etish va nazariy xulosalar chiqarishda asosiy obyekt bo'la oladi. Chunki uning sujeti va obrazlar tarkibida qadimgi yunon eposi "Odisseya", koreys dostoni "Jumong" bilan o'xshashliklar borligi aniqlangan. Doston butun turkiy xalqlarning baxshilari orasida ham mashhur. Uning qator versiya va variantlari yozib olingan.

Juda ko'p dostonlarning sujetida marosim sujet voqealarini tashkil qilishda alohida o'rin tutishi bilan e'tiborni tortadi. Bu esa doston va marosimning o'zaro bog'liqligidan darak beradi. Lekin ularning orasidagi bog'liqlik sababi hali aniq va yetarli ochilmagan. Bu haqda rus olimi B.N. Putilov ham "Epos va marosim" asarida alohida qayd etib o'tgan [1].

"Alpomish" dostoni bir necha baxshilardan turli variant va versiyalarda yozib olingani inobatga olinib, ular o'zaro qiyoslansa, bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari ularda tasvirlangan marosim va urf-odatlar misolida yanada yaqqol ko'rinadi. Bu esa dostonning kuylangan davri va joyi, baxshining poetik mahorati bilan ham bog'liq ekanini ravshanlashadi.

Po'ltan shoir va Ergash Jumanbul o'g'li variantida Boybo'ri va Boysarining farzand tilab aziz avliyo-anbiyolarga sig'inishlari, umuman diniy motivlar xalqning doston yaratilgan davr dunyoqarashiga mos ravishda ancha kengaytirib berilgani anglashiladi. Masalan, Boybo'ri bolalari tug'ilishi sharofatiga Bobo Qambar nasihati bilan elida machit, madrasalar qurdiradi. Berdi baxshi variantida nikoh haqida yangi tartib belgilangani qayd etiladi. Dobonbiy o'g'illariga "Boysin, Boysindan qiz olma, Qo'ng'irotdan ol! Qo'ng'irotdan qiz olma, Boysindan ol! Bir-biringizdan ajralib ketmanglar" deydi.

Muhammad Jonmurod o'g'li Po'ltan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Berdiy Pirimqul o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlarida qahramonning o'zga mamlakat polvonlari bilan do'st tutinishining ikki bosqichi – yakkama-yakka kurashda kuch sinashishi motivi keltirilgan.

Berdi baxshi variantida alp qiz bilan uni olishga talabgorlar o'rtasidagi olishuv – yoy tortish sharti berilgan. Po'ltan variantida bu shart jumboq (topishmoq) aytishish ko'rinishida tasvirlangan.

Po'lkani shoir va Berdi baxshi variantlarida Alpomishning zindondan qutilishiga yordam bergani uchun Toychixonning qizi Tovka oyimga ikkinchi xotin (kichik xotin) sifatida uylanishi tasviri mavjud. Bu xalq tilida "to'qol xotin" deb yuritilgan. Ammo bu motiv dostonning barcha variantlarida uchramaydi. Buning sababini alpomishshunos T.Mirzaev Egamberdi baxshi aytib bergan variant bilan izohlaydi. Aytilishicha, Jolmoq baxshi "Alpomish" dostonini bir bekning uyida kuylayotganida tomida turib uni tinglayotgan xotini tuynukdan "E, insofsiz shoir, shunday go'zal qizni bir kalga olib berding-a!" deb ovoz bergan ekan. Buni eshitgan dostonchi darhol voqealar borishini o'zgartirib, kal Qayqubodni emas, Alpomishni Tovkaga uylangan tarzda kuylagan ekan. Shundan beri ko'pchilik baxshilar o'rtasida dostonni Alpomishning to'qol xotin sifatida Tovkaga uylanishi tarzida kuylash rasm bo'lib qolgan ekan [2].

Po'lkani shoir va Ergash Jumanbul o'g'li kuylagan variantlarda Boybo'rining shohligini nishonlash ziyofati ham tasvirlangan. El yig'ilib podshoga qulluq bo'lsinga keladi. Hammasiga erta bilan choy beradi, oqshomda palov tortadi. Har birining oldiga qavat-qavat sarpo, durumsari kallaqand qo'ydiradi. Bu variantida "Uch kunlik kuyov ko'rsatar" marosimi nomi tilga olingan [2].

Yana bu variantda Boysarining qalmoqlar tomonidan o'ldirilishi va qizi Barchin bu haqda bilgach, otasiga osh berib, mullalaga Qur'on o'qitib, odamlardan fotiha olishi haqida so'z yuritilgan. Variantning bir o'rnida qassoblar aytadigan duo tilga olib etilgan. Uni Qayqubod qassoblik qilsam deb, "Oshpichoq, qalampir bor, piyozim bor, otamdan qolgan katta oshpichog'im bor. Lo havla vala quvvato, illo billohi, aliul azim" duosini o'qiydi. Bu variantda Qaldirg'och otasining tushini kitob ko'rib jo'rishi (yo'yishi) motivi ham keltirilgan. Xotinlarning to'yga bedasturxon borishi sharmandalik sifatida baholanishi Fozil Yo'ldosh o'g'li kabi Saidmurod Panoh o'g'li variantida alohida qayd qilingan.

Qadimdan beri xalqimizda dunyoga kelgan chaqaloqning ismini qo'yishda muayyan udumlarga, qoidalarga amal qilinadi. Chunki qadimgi insonlar o'z ismini tanasining bir qismi deb qaraganligi sabab odamlar o'rtasida ismlar bilan bog'liq tabular, urf-odat va an'analar shakllangan. Tug'ilgan bolaga ism qo'yishda donishmandlarga, avliyolarga murojaat qilingan. Maxsus kitoblardan foydalanilgan. Hatto, yuqorida ta'kidlanganidek, jarayon "Ism to'yi" nomi bilan marosim shaklida kechgan. Ism qo'yishda, albatta, bolaning qaysi sulolaga mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi, tavallud topgan vaqti, sog'lomligi inobatga olingan. Bir so'z bilan aytganda, bolaga ism qo'yish nihoyatda jiddiy va mas'uliyatli vazifa sifatida qaralgan. Ko'pgina xalqlar o'rtasida insonni yoshligida boshqa, ulg'ayganida yana boshqa nom bilan atash irimi bor. Bu rus xalqi hayotida ham kuzatiladi. Masalan, ruslar biror o'g'il bolani yoshligida Vova deb atasalar, uni katta bo'lib, ulg'aygach, Valentin deb ataydilar. Yoki biror qizchani Lena deb atashgan bo'lishsa, u voyaga yetgach ismini Valentina, Dima ismli bolakayni Dmitriy deb ataydigan bo'lishadi.

Markaziy Avstraliya qabilalari o'rtasida ham har bir erkak, ayol, bolaning asosiy nomi bilan bir qatorda yashirin nomi bo'ladi. Bunga qadimgi insonlarning ismlar bilan bog'liq tabu va irimlarga ishonchi asos sanaladi. E'tiborli jihati shundaki, bunday qadimiy ishonch xalqimiz orasida ham mavjud bo'lganini bevosita Hakimbekning ma'lum yoshga yetganda Alpomish nomini olishi misolida ham asoslash mumkin.

Xalq orasida biror kasallik bilan tug'ilgan bolalarga tuzalsin, kuch-quvvatga to'lib yursin degan niyatda Ochilbek, Ochiloy, Darmon, Omon, Eson, Salomat, Quvvat, Yaxshiboy, Yaxshigul, To'g'ri kabi ismlar berilgan.

Agar tug'ilgan chaqaloq tanasining ko'zga tashlanib turadigan biror yerida (masalan, qo'lida besh emas, oltita barmog'i, qulog'ida) ortiqcha bez yo go'sht bo'lsa, unga Ortiq, Ziyod, Ziyoda ismi qo'yiladi. Aksincha, bolaning biror kamchiligi bo'lsa, u Kamtar, Kamina deb ataladi. Shuningdek, yetim norasidalarga ham alohida ismlar qo'yish odati mavjud. Masalan, homilasi bilan eridan beva qolgan ayoldan tug'ilgan yoki otasi o'lganida hali onasining qornida bo'lgan bolalarga o'g'il bo'lsa – Yodgor, O'rinboy, Nishon ismi, qiz bo'lsa – Yodgora, O'ringul, Nishona, Nusxa ismlari qo'yiladiki, xuddi mana shu odatga ishora Alpomishning bandilik davrida tug'ilgan o'g'li Yodgor taqdiri misolida kuzatiladi. Barchin eri Alpomishning safarga ketishdan oldin o'g'liga Yodgor deb ism qo'yishni tayinlab ketganini bildirgach, hamma shu ismda to'xtaladi.

Xalq bolaga munosib ism qo'yilmasa, uni hatto qo'yilgan nomunosib ism o'limga olib kelishi mumkin deb qaragan. Shuning uchun bolalarga har qanday vaziyatni hisobga olib, munosib ism qo'yish eng mas'uliyatli ishlardan biri hisoblangan va bu marosim ko'rinishida tashkil etilgan.

“Alpomish” dostonida Ali – Shohimardon (Mardlar shohi) pir qiyofasida yaxshi nurli qalandar kirib keladi va bolalarga ism qo'yadi: “Shohimardon piri Boybo'ri o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi” deyiladi dostonida [3].

Sovchilik bilan bog'liq “ro'mol bog'lash” udumi qizning boshini “band qilish”, ya'ni fотиha qilish rasmini ramziy ifoda etadi. “Ro'mol o'rash” marosimidan so'ng bu qizga boshqa xonadondan sovchi kelmaydi. Shu qizning endi atalgani bor hisoblanadi.

Sovchilikda ko'pincha yigit va qizni bir-biriga teng ko'rish, atashtirish uchun ularning mos keladigan belgi-xususiyatlariga ahamiyat qaratilgan. Ikkala yoshning “yulduzi yulduziga teng kelishi”, bir-biriga har tomonlama munosibligi ta'rif-tavsif qilingan. Shundan kelib chiqib, “Alpomish” dostonida sovchi Surxayil tilidan Qorajon va Barchinni tenglashtirishga qaratilgan shunday so'zlar aytiladi:

*Kelin qilib ketay sening qizingdi,  
Sening qizing Qorajonga lozimdi(r).  
Qizingning boshida taralgan chochi,  
Qorajon ham yigitlarning me'roji...  
Qorajon ham yomon emas, bekbachcha,  
Ikkovi ham o'ynab yursin har kecha...  
Necha qizlar Qorajon deb intizor,  
O'ziga teng ko'rmas bolam zo'rabor,  
Kelin qilib borsam ko'ngli topilar,  
Necha mahram Qorajonga xizmatkor,  
Shul qizingni sening bermog'ing darkor [3].*

Sovchilar o'z niyatlarini qiz tomonga bildirganlaridan keyin qiz tomon ham o'z fikrini aytgan. “Alpomish” dostonida Barchinning onasi tomonidan Surxayil boshliq sovchilarga berilgan javob shunday keltirilgan: “Kampirdan bu so'zni eshitib, boybicha ham bir so'z deb turgan ekan:

*Qozonda qaynagan shirboz go'sh emas,  
To'rda o'tirgan qizning boshi bo'sh emas.  
Qizim domot bobosining uliga,  
Mol bergani Boysin-Qo'ng'iro't elida.  
Asli o'zi Qo'ng'iro't elning bekozdi,  
Shul qizimning bul atashgan domoti,  
Erisin tog'larning qori erisin,  
Yer ostida dushman tani chirisin,  
Iloyim Qorajon o'g'ling qurisin,  
Sen eshitgin mening aytgan so'zimni [3].*

Bir osh pishgunga qadar qiz va yigit tomon shu tarzda “og'iz islash” savol-javobini qilib olishgan. Bunda javobning ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'iy nazar, tashrif buyurgan mehmonlar quruq jo'natilmagan. Shu ma'noda garchi Barchinning onasi Qorajon tomonidan kelgan sovchilarga norozilik bildirgan, qizining boshi bog'liqligini aytgan esa-da, ularni quruq qaytarmaydi. Osh suzib, mehmon qiladi. “Alpomish” dostonida buning tasviri shunday keltirilgan: “Mehmonlarni o'tqizib, qo'lini yuvdirib, uch tovoqqa oshni suzib, olib kelib mehmonlarning oldiga qo'ydi: bir tovoq to'rtovara bo'lib qoldi. Boya Qorajonning enasi zehni koyigan, ikki guruch olib og'ziga soldi. Buyoqdagi kampirlar agar uch guruch olib og'ziga solsa, haddi yo'q, boshini kesadi. Qorajonning enasidan qo'rqanidan bular ham ikki guruchdan olib og'ziga soldi. Uch tovoq oshdan yigirma guruch kamib qoldi. Bo'ldik, – deb uzata berdi. Tovoqni berib, fотihani yuziga tortdi, mehmonlarni jo'natdi”.

Bu tasvir shuni anglatadiki, sovchilikka har kimni ham uzatib bo'lmaydi. Bunday ishga, asosan, ko'pni ko'rgan, odob-axloqli, nafsini tiya oladigan, ko'rimli, farosatli, o'y-fikrli, so'zga chechan kishilar jalb qilingan. Aks holda, dostonida tasvirlanganidek, xunuk holat yuz berishi mumkin.

Sovchilar ham aslida mehmonning bir turidir. Xalqimiz orasida “Mehmon otangday ulug'” degan hikmat yuradi. Shuning uchun har tomonlama andishali, ko'zi to'q bo'lgan Boysari xonadoni vakillari sovchi-mehmonlarni iliq kutib olib, ularning olqishiga erishadi. Ular Boysari xonadonini “Xo'p ko'rganli boylar ekan” deya maqtab ketishadi.

Kuyov tomon, odatda, sovchilikdan qaytganlarni “Bo'rimi, tulki?” deya kutib olishi an'anaga aylangan. Agar sovchilarning ishi bitgan bo'lsa “bo'ri” deb, qiz tomon rozi bo'lmagan taqdirda “tulki” deb javob berishadi. Ana shu azaliy odat ham “Alpomish” dostonida o'z talqinini topgan. Jumladan, sovchilikka ketgan onasini Murodtepada kutib turgan Qorajonning ruhiy kechinmalari bu jihatdan shunday ifoda etilgan: “Qorajon yo'lga qarab yotibdi. Qarasa, enasi kelayapti, enasini ko'rib Qorajon: – Qalay, qalay, ena? Bo'ri bo'lib kelayapsanmi, tulki bo'lib kelayapsanmi? – dedi. Enasi aytdi: – Bolam, men borgan yerda ham tulki bo'lamanmi, bo'ri bo'lib kelayotibman, seni uylantirib, bu ko'ylaklarni quda-andalikka kiyib kelayotibman”.

Sovchilik udumlarimiz bo'yicha agar qiz tomon qudalashishga rozi bo'lsa, kelgan sovchilarga zo'r ziyofat berish barobarida qimmatbaho sarpolar ham kiydirib jo'natadi. Ma'lumki, Surxayil kampirni it talab, egnidagi kiyimlarini yirtadi. Uning yalang'och bo'lib qolganini ko'rib, boybicha uyiga borib, yangi kiyimlar olib kelib, kampirning ustidagi kuchuk yirtgan kiyimlarini chechib olib, yangi kiyim kiydirib, kuchuklarini urib, kampirning dimog'ini chog' qilib, uyiga ergashtirib boradi. Yolg'onchi kampir esa shu holatni yashirib, Qorajonni aldaydi. Bu o'rinda Surxayil kampirning yana bir salbiy xususiyati namoyon bo'ladi. Onasiga ishongan Qorajonning esa soddadilligi, ishonuvchanligi, ko'ngli to'g'riligi anglashiladi. Shuning uchun Qorajon aytadi: “Enam bizni ko'rganli yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarposini qilib yuboribdi”. – Endi bo'ri bo'lganingdan gapir, – deb turibdi.

Odatda, sovchilar sovchilik jarayonini oqizmay-tomizmay gapirib berishadi. Shu hayotiy voqelik ham “Alpomish” dostoni sujetidan o'rin olgan: “Qilgan ishidan bildirib, kampir Qorajonga qarab, bir so'z deyapti:

*Kelin qilayin deb avval so'radim.  
Boysarining yaxshi qizi bor ekan,  
Oti Barchin, o'zi zulfakdor ekan,  
– deya sovchi ona qizning ta'rifini keltiradi.  
Qirqin qizlar unga xizmatkor ekan.  
O'n to'rt yashar ekan, ayni kamoli,  
Boshida pirpirar lovdon ro'moli.  
Boybichani ko'p ag'darib so'radim,  
Boshi bo'sh ekanin toza sinadim,  
Senga atashtirib ro'mol o'radim,  
Shu bugun qallicqa borgin, Qorajon,  
O'zbaklarning rasimi shunday bo'ladi,  
Atashtirgan kuni kuyov boradi [3].*

Odatda, sovchilarga rozilik bildirilgandan so'ng rasm-odat bo'yicha qanday udumlar amalga oshirilishi, qiz mahri uchun nimalar berilishi lozimligi, “qiz qalini” kabilar kelishib olingan. Shuning uchun sovchi bo'lib kelgan Surxayil qiz tomonga qarata:

*Rasmi qa'dang menga ma'lum qilsang-chi,  
Nima deb amr etsang ani berayin,  
O'zbek boylar, rasimingni so'rayin, – deya murojaat etadi [3].*

O'tmishda ko'proq yaqin qarindoshlar, bir-biri bilan sinashta odamlar o'zaro quda bo'lishni rejalashtirgan. Buning natijasida hatto chaqaloqlarni yoshligidan bir-biriga "atashtirib qo'yish", "qulog'ini tishlatish", "beshikkerti qilish", "etak yirtar qilish" singari odatlar amalga oshirilgan. E'tiborli jihati shundaki, bunday qadimiy odatlarimiz hozir deyarli bajarilmasa-da, ular haqidagi ma'lumotlar xalq dostonlarida badiiy motiv ko'rinishida saqlanib qolgani kuzatiladi. Jumladan, "Alpomish" dostonining Qora baxshi Umirovdan yozib olingan variantida Hakimbek bilan Barchinoyini "etak yirtish" qilib, unashtirib qo'yilgani tasvirlanadi: "Hakimbek bilan Barchinoyning orqa etagini birga ushlab yirtirdi, ikkovini "etak yirtish" qilib unashtirib qo'ydi". Tadqiqotchi Latifa Xudoyqulova surxon vohasi sovcilik qo'shiqlari va ayimlariga nazar qaratar ekan, hududdagi sovcilik ko'rinishlarini ham aytib o'tadi. U "etak yirtar" shunday odatlardan biri ekanligini ta'kidlab, bu odatga ko'ra Surxon vohasining Denov tumanida qiz bola tug'ilganida kelin qilishni niyat qilgan oila mazkur xonadonga tashrif buyurib, chaqaloqqa kiygizilgan ko'ylakning etagini irim qilib yirtib qo'ygan.

"Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantida "Shohimardon Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshikkerti qilib: "Bu ikkovi eru xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar" deb fotiha o'qigan tasviri beriladi. Bolalarni yoshligidan, ya'ni beshik davridan er-xotinlikka atash "beshikkerti" udumi nomi bilan yuritiladi. Bu udum azalda respublikamizning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan.

"Etak yirtar", "beshikkerti" qilingan qiz bola voyaga yetganida uning etagini yirtgan yoki beshigini kertgan oila tomonidan "el belgisi" deb nomlangan marosim o'tkazilgan. Buning uchun oilaning yaqin qarindosh-urug'lari va mahalla oqsoqollari ishtirokida qizning uyiga biror jonliq, ko'pincha qo'chqor olib kelib so'rganlar va fotiha o'qiganlar shundan so'ng bu qiz "belgili" hisoblangan va uning uyiga boshqa xonadondan sovg'i qo'yilmagan [7].

Umuman aytganda, o'zbek xonadonlarida farzandning kelajagi uchun uning yoshligidan boshlab qayg'ura boshlaydilar. Ayniqsa, o'g'li borlar yaxshi kelin olishni, qizi borlar esa uni yaxshi joyga uzatishni orzu qiladi. Shuning uchun "qiz tanlash" bosqichi juda muhim va nozik sanaladi.

"Alpomish" dostonida "qiz tanlash"ning yana bir boshqacha ko'rinishi ham tasvirlangan. Unda yetti qalmoq bahodirlaridan biri bo'lgan Ko'kaman tilidan shunday deyiladi: "Bular yotgan eliboy, bu qizlarga burilib borayin, borib bulardan qimiz so'rayin. Qimiz bersa, shu qizning birovini olaman, suv bersa, quruq qolaman, peshonamni shu yerdan sinab ko'raman" [6].

Shunday deb Ko'kaman alp eliboyning qizlaridan qimiz so'rab keladi. Uning gapini eshitgan Barchin esa kaniziga aytdi: "Bu qalmoq qimizni bizdan irim bilan so'rayapti. Bir jom suv bergin, bizdan suvday sovib ketsin, umidini uzib ketsin", – deydi. Suqsur kaniz bekasining gapini qilib, jomni tiniq suvga to'ldirib, Ko'kaman alpga uzatadi. Ko'kaman alp jomdagi qimiz emas, suv ekanini ko'rgach, achchig'i kelib, kanizning bilagiga qamchi bilan soladi. Jom jingirlab yerga tushib ketadi. Suqsur kaniz Ko'kaman alpdan bu zulmni ko'rganiga ko'ngli buziladi.

"Yulduzi yulduziga teng kelishi" [6], bir-biriga har tomonlama munosibligi ta'riflangan birgina atashtirish marosimi marosimni biz 3tipga bo'lib o'rgandik:

1) *tug'ilmasdanoq atashtirish*: Egamberdi baxshi, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Umir shoir, Murod Otaboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li varianlarda uchratamiz.

2) *tug'ilgach atashtirish*: Po'lkan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Berdi baxshi variantida.

3) *pirilar, avliyolar tomonidan atashtirish*: Fozil yo'ldosh va Abdulla shoirida bo'lib, "bu ikkovi eru xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech kim barobar bo'lolmasin, ollohu akbar" deydi.

"Alpomish" dostonida ayrim unutilib ketgan yoki unutilib borayotgan marosimlar haqida ham ma'lumot olish mumkin. Masalan, qadimda o'zaro do'stlashish marosimi ham o'tkazilgan. Chunki bu marosim ijtimoiy ahaiyat kasb etgan. Qadimgi zamonlarda aka-uka, do'st tutinish o'sha oilaga a'zo bo'lishni bildirar va oila orqali urug'ga qabul qilinar edi. Dostonda Alpomish va Qorajon do'stligi orqali uzoq kechmishdagi ana shu turmush haqiqatining poetiklashgan tasvirini ko'ramiz. Do'stlashish marosimi shartiga ko'ra, odatda, ikki kishi bosh yoki ko'rsatkich barmog'ini kesib, chiqqan qonni bir-biriga yalatadi.

Fozil Yo'ldosh kuylagan variantida Alpomish bilan Qorajon esa do'stlashish uchun qattiq quchoqlashib ko'rishishadi. Shundan so'ng Alpomish Qorajonnikida mehmon bo'ladi. Qorajon Alpomish sharafiga ziyofat uyushtirib, yugurib yelgancha do'stiga xizmat qiladi. Bu vaziyatni ko'rib ensasi qotgan enasiga (Surxayil kampirga) Qorajon shunday izoh beradi:

*Xudoni o'rtaga solib do'st bo'ldim,  
Kelgan mehmon sening o'g'ling bo'ladi,  
Unday desang, ena, ko'nglim qoladi,  
Xudoga urdirib osi bo'ladi* [3].

Ma'lumki, ko'pgina marosimlarimiz ikki qismdan tashkil topadi. Birinchi qismi – ritual, ikkinchi qismi – ziyofatdan iborat bo'ladi. Demak, dostonda Alpomish bilan Qorajonning do'stlashish uchun avval qattiq quchoqlashib ko'rishishi marosimning ritual qismini anglatasa, keyin Qorajonning Alpomish sharafiga ziyofat tashkil etishi marosimning ikkinchi qismini bildiradi.

Po'lkani shoir va Ergash Jumanbul o'g'li kuylagan variantida Qorajon bilan Alpomishning do'stlashish tasviri keltirilgan ekan, Qorajonning teng bo'lmagani uchun do'st, hamkengash bo'lgani ta'kidlanadi. Shunda Qorajon: "Ikkovimiz do'st bo'ldik. Qalmoq edim, siz bilan teng bo'ldik. Kallasini Alpomish polvonning etagiga solib: – O'lganimcha sening xizmatkoringman", – deydi. Egamberdi baxshi Ollomurod o'g'li variantida Qorajon Hakimbekka: "Seni uyimga olib borib, mehmon qilay, Qur'onni qo'yib, quchoqlashib do'st kiray", – deydi va "Agar senga tig' tortsam, pes bo'lay, moxov bo'lay, bosgan izim orqamda qolsin, yelkamning chuqurini ko'rmas o'lay, qornimga qoziq kirsin, bolalarim yetim bo'lib qolsin, voyaga yetmay, juvonmarg o'lay" deya, o'z-o'ziga qaratilgan qarg'ishlar orqali qasam ichadi. Murtini kesib musulmon bo'ladi. Do'stlashish marosimi Abdulla shoir va Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh kuylagan variantlaridan tashqari barcha variantlarda uchraydi [5].

Xulosa qilib aytganda, dostonlar og'izdan-og'izga, avloddan avlodga o'tar ekan, uni kuylab kelgan har bir baxshi-shoirning ijodiy salohiyati bilan bog'liq kuch-qudratni birlashtiradi. Shu kuch qudrati bilan butun bir millat, xalq dunyoqarashi shakllanishi, maishiy hayotda aks etgan marosimlar, an'analarni, milliy qadriyatlarni asrab qolishga turtki beradi. Uning doirasida o'sha millat va xalqqa xos ta'lim-tarbiya, axloq meyo'rlari ham avloddan avlodga uzatib boriladi.

**ИҚТИБОСЛАР/SNOSKI/REFERENCES**

1. Путилов Б.Н. Эпос и обряд. – Л.: Наука, 1974. – С.76
2. Мирзаев Т. Бир биридан гўзал // Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Тўртинчи жилд. Достонлар. Муҳаммад Жонмурод ўғли Пўлкан ва Эргаш Жуманбулбул ўғли, Бердиёр Пиримкул ўғли, Саидмурод Паноҳ ўғли вариантлари. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.18.
3. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.17.
4. Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Биринчи жилд. Достон. Фозил Йўлдош ўғли варианты. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 512 б.
5. Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Тўртинчи жилд. Достонлар. Муҳаммад Жонмурод ўғли Пўлкан ва Эргаш Жуманбулбул ўғли, Бердиёр Пиримкул ўғли, Саидмурод Паноҳ ўғли вариантлари. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 444 б.
6. Maxbuba Baxshilloyevna Sharipova, Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKOH DAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nikohdan-so-ng-ado-etiladigan-urf-odatlar-tasviri-almomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12.2021).
7. Maxbuba Baxshilloyevna Sharipova, Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-dostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-almomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12.2021).

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-10

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-10

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)